



UDK:811.512.133.004

Dildora PULATOVA,

Dotsent, PhD, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz, O'zbekiston

E-mail: pulatovadildora0@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0008-3637-8095>

F.f.d, prof.v.b. M.Abdurahmanova taqrizi asosida

LEXICAL INNOVATIONS IN UZBEK DIGITAL DISCOURSE

Annotation

This article examines the pragmalinguistic features of lexical innovations emerging in Uzbek digital discourse. It analyzes the factors contributing to the emergence of new lexical units in digital communication, their communicative-pragmatic functions, and their role in discourse from a pragmalinguistic perspective.

Keywords: Uzbek digital discourse, lexical innovations, pragmalinguistics, digital communication, discourse, communicative function, borrowed lexical units.

ЛЕКСИЧЕСКИЕ ИННОВАЦИИ В УЗБЕКСКОМ ЦИФРОВОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация

В статье анализируются прагматическо-лингвистические особенности лексических инноваций, формирующихся в узбекском цифровом дискурсе. Рассматриваются факторы возникновения новых лексических единиц в процессе цифровой коммуникации, их коммуникативно-прагматические функции и роль в дискурсе на основе научного подхода.

Ключевые слова: узбекский цифровой дискурс, лексические инновации, прагматическая лингвистика, цифровая коммуникация, дискурс, коммуникативная функция, заимствованные языковые единицы.

O'ZBEK RAQAMLI DISKURSIDA LEKSIK INNOVATSIYALAR

Annotatsiya

Maqolada o'zbek raqamli diskursida shakllanayotgan leksik innovatsiyalarning pragmalingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Raqamli kommunikatsiya jarayonida yuzaga kelayotgan yangi leksik birliklarning shakllanish omillari, kommunikativ-pragmatik funksiyalari misollar orqali tahlil qilinadi hamda diskursdagi o'rni ilmiy yondashuv asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek raqamli diskursi, leksik innovatsiyalar, pragmalingvistika, raqamli kommunikatsiya, diskurs, kommunikativ funksiya, o'zlashma birliklar.

Kirish. Bugungi kunda raqamli kommunikatsiyada faol qo'llanilayotgan leksik innovatsiyalar ma'lum kommunikativ-pragmatik funksiyalarni bajaradi. Leksik innovatsiyalar faqat yangi tushunchalarni nomlash bilan cheklanmay, muloqotning pragmatik samaradorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi, axborotni ixcham, tezkor va adresat uchun tushunarli shaklda yetkazishni ta'minlaydi. Shu jihatdan internet diskursida qo'llanilayotgan yangi leksik birliklar kommunikativ iqtisod tamoyilining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy raqamli asrda tilning rivojlanish jarayonlari texnologik inqilobning ko'lamiga muvofiq kengaymoqda. Internetning keng tarqalishi, mobil aloqa vositalari va ijtimoiy tarmoqlar yangi kommunikatsiya formatlarini kiritdi [1]. Raqamli diskursda pragmatik strategiyalar til tizimining barcha sathlarida namoyon bo'ladi. Leksik darajada baholovchi birliklar, diskurs markerlari va modal so'zlar faol qo'llaniladi. Sintaktik darajada esa qisqa gaplar, ellipsis va so'roq shakllar kommunikativ ta'sirni kuchaytiradi [2].

Raqamli kommunikatsiya nafaqat yangi texnologik vositalarni, balki yangi leksik qatlamning shakllanishini ham jadallashirmoqda. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, raqamli muhitda an'anaviy til me'yorlarining soddalashuvi bilan bir qatorda sleng, neologizm va boshqa yangi leksik birliklarning faollashuvi kuzatiladi, bu esa raqamli diskursning muhim lingvistik belgilaridan biri hisoblanadi [3].

Raqamli diskursda kuzatilayotgan leksik innovatsiyalarni faqat yangi so'zlarning paydo bo'lishi yoki

xorijiy tillardan kirib kelayotgan o'zlashmalar sifatida qaramaslik lozim. Pragmalingvistik nuqtayi nazardan qaralganda, yangi leksik birliklarning yuzaga kelishi, avvalo, muloqotning yangi shakllari va kommunikativ ehtiyojlari bilan bog'liq. Boshqacha aytganda, internet muhiti yangi so'zlarni emas, balki yangi kommunikativ vaziyatlarni vujudga keltirmoqda. Ana shu vaziyatlarni ifodalash uchun esa til tizimida yangi leksik vositalar shakllanmoqda. Diskursning ekstralingvistik omillar bilan uzviy bog'liqligi haqidagi qarashlar ham aynan shu fikrlarni tasdiqlaydi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada o'zbek tilidagi ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, Facebook va YouTube) hamda internet nashrlarida qo'llanilayotgan leksik innovatsiyalar kuzatildi va tahlil qilindi. Til materiallarini o'rganishda tavsifiy, diskursiv, kontekstual va pragmalingvistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Kuzatishlarimiz asosida shuni aytish mumkin, o'zbek internet foydalanuvchilari nutqida keng qo'llanilayotgan post, story, reels, layk, chat, podkast, blogger, kontent kabi birliklar dastlab ingliz tilidan o'zlashgan terminlar sifatida kirib kelgan. Biroq bugungi kunda ular faqat terminologik birlik sifatida emas, balki kundalik muloqotning faol komponentiga aylangan. Telegram kanallarida uchraydigan "Bugungi postni o'qidingizmi?", "Postni pin qilib qo'ying", Instagramdagi "Storyga javob yozing", "Reels trendga chiqibdi" kabi nutqiy birliklar buning yaqqol dalilidir. Ushbu misollarda post, story, reels leksemalari oddiy nominativ vazifani bajarmaydi, balki foydalanuvchilar uchun oldindan

ma'lum bo'lgan kommunikativ vaziyatni faollashtiradi. Masalan, story leksemasini olaylik, adabiy o'zbek tilida uning lug'aviy muqobili sifatida hikoya so'zi mavjud. Biroq ijtimoiy tarmoqlardagi story va adabiy tildagi hikoya semantik hamda pragmatik jihatdan aynan bir xil birliklar emas. Chunki story internet foydalanuvchisi ongida 24 soatdan so'ng avtomatik o'chib ketadigan vizual axborot, unga javob yozish imkoniyati, auditoriya bilan tezkor muloqot va platformaga xos kommunikativ format haqidagi bilimlarni ham ifodalaydi. Demak, mazkur leksemaning pragmatik mazmuni uning lug'aviy ma'nosidan ancha keng. Bu esa leksik innovatsiyaning qiymati yangi nom yaratishda emas, balki yangi kommunikativ konseptni ifodalashda ekanligini ko'rsatadi.

Shunga o'xshash holat post leksemasida ham kuzatiladi. O'zbek tilida xabar, maqola, e'lon kabi birliklar mavjud bo'lsa-da, internet foydalanuvchilari "Yangi post joylandi", "Postni ulashing" kabi shakllardan foydalanadi. Buning sababi post so'zi nafaqat matnni, balki uning ijtimoiy tarmoqdagi joylashuvi, izoh qoldirish, ulashish, belgilash kabi funksiyalarni ham anglatishidir. Demak, leksik innovatsiyaning pragmatik qiymati uning semantik mazmunigagina emas, balki kommunikativ tajribaga tayangan qo'shimcha ma'nolarni ham ifodalashiga bog'liq.

Internet-kommunikatsiya ingliz tilidan kirib kelayotgan o'zlashma birliklarning keng qo'llanishiga xizmat qilmoqda. Natijada ular foydalanuvchilarning kundalik muloqotida faol ishlatilib, kommunikativ ehtiyojni qondiruvchi vositaga aylanmoqda [5]. Virtual diskursda gibril leksik birliklarning shakllanishi ham pragmatik jihatdan muhim hodisalardan biri. O'zbek tilida faol qo'llanayotgan layk bosmoq, post joylamoq, story qo'yimoq, skrin tashlamoq, bloklamoq kabi birliklar ingliz tilidagi leksik asos hamda o'zbek tilining grammatik imkoniyatlari uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelgan. Mazkur birliklar o'zlashmaning oddiy ko'rinishi emas, balki til tizimining yangi kommunikativ ehtiyojlarga moslashuvining natijasi sifatida qaralishi lozim.

Virtual va multimodal diskursga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham raqamli kommunikatsiya jarayonida til birliklari multimodal vositalar hamda platformaga xos kommunikativ kodlar bilan uyg'unlashishi ta'kidlanadi [6]. Bizning kuzatishlarimiz ham shuni ko'rsatadiki, o'zbek raqamli diskursda qo'llanilayotgan leksik innovatsiyalar alohida olingan til birliklari emas, balki internet platformalarida shakllangan yangi kommunikativ kodlarning tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Internet muloqotining muhim belgilaridan biri axborotni minimal til vositalari orqali maksimal darajada uzatishga intilishidir. Shu bois qisqartmalar, yangi leksik birliklar hamda emotsional belgilar kommunikativ tejamkorlikni ta'minlovchi vositalar sifatida faol qo'llaniladi [3]. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda "Layk bosishni unutmang", "Kanalga obuna bo'ling" kabi birikmalar muntazam uchraydi. Mazkur birliklarning har biri foydalanuvchi bajarishi lozim bo'lgan aniq kommunikativ harakatni ifodalaydi. Agar layk bosmoq birikmasi o'rniga "yoqqanini belgilash tugmasini bosing", "Storyga javob yozing" o'rniga "vaqtinchalik e'lon ostida fikringizni qoldiring" kabi ifodalar ishlatilsa, nutqning ixchamligi va tezkorligi yo'qoladi. Demak, leksik innovatsiyalar raqamli muloqotning asosiy talabi bo'lgan kommunikativ tejamkorlikni ta'minlovchi vositalardan biridir.

Leksik innovatsiyalar baholash munosabatini ifodalashda ham faol ishtirok etadi. Masalan, "Kontentingiz top chiqibdi", "Bu video trendga chiqdi", "Juda kreativ post ekan" kabi jumalalarda top, trend, kreativ birliklari faqat predmetni tavsiflamaydi, balki muallifning ijobiy bahosini ham bildiradi. N.I.Klushina mediadiskursda emotsional-ekspressiv vositalar auditoriyaga pragmatik ta'sir ko'rsatishning muhim omili

ekanligini ta'kidlaydi [7]. O'zbek raqamli diskursida qo'llanilayotgan mazkur birliklar ham aynan baholash va ta'sir ko'rsatish funksiyasini bajarishi kuzatiladi.

Leksik innovatsiyalarning yana bir muhim pragmatik vazifasi foydalanuvchilarning ijtimoiy identifikatsiyasini namoyon etishidir. Admin, blogger, obunachi, kanal kabi birliklar nafaqat raqamli muloqot ishtirokchilarining vazifasi yoki maqomini bildiradi, balki ularning internet hamjamiyatidagi o'rnini ham ifodalaydi. Jumladan, "Admin javob berdi", "Blogger yangi post joyladi", "Kanalning obunachilari soni oshdi" kabi jumalalarda mazkur birliklar foydalanuvchining raqamli makondagi ijtimoiy rolini belgilovchi pragmatik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ayrim tadqiqotchilar o'zbek ijtimoiy tarmoqlari diskursida til birliklarining tanlanishi foydalanuvchilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va muloqot strategiyalarini aks ettirishini qayd etadi [8]. Shunga ko'ra, mazkur leksik birliklar shaxsning raqamli makondagi identifikatsiyasini shakllantiruvchi pragmatik vositalar sifatida baholanishi mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek raqamli diskursidagi leksik innovatsiyalar kommunikativ iqtisodiylikni ta'minlash, baholash munosabatini ifodalash hamda foydalanuvchilarning ijtimoiy identifikatsiyasini namoyon etish kabi pragmatik funksiyalarni bajaradi. Shu sababli ularni faqat neologizm yoki o'zlashma sifatida emas, balki zamonaviy raqamli kommunikatsiyaning funksional ehtiyojlarini ta'minlovchi pragmatik birliklar sifatida talqin qilish lozim deb hisoblaymiz.

Leksik innovatsiyalarning o'zbek raqamli diskursi taraqqiyotidagi o'rni haqida shuni aytish mumkinki, raqamli kommunikatsiya jarayonida yuzaga kelayotgan leksik innovatsiyalarni adabiy til me'yorlariga zid hodisa sifatida baholash biryoqlama yondashuv hisoblanadi. Til taraqqiyoti tarixiga nazar tashlansa, har bir davrda jamiyat ehtiyojlari bilan bog'liq ravishda yangi leksik birliklar shakllangan va ularning muayyan qismi til tizimidan mustahkam o'rin olgan. Shu nuqtayi nazardan, bugungi raqamli diskursda faol qo'llanayotgan innovatsion birliklar ham zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarning mahsuli sifatida yuzaga kelmoqda.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, internet muhitida qo'llanilayotgan barcha yangi birliklar ham adabiy til tarkibiga kirib qolmaydi. Ayrimlari muayyan ijtimoiy tarmoq yoki foydalanuvchilar guruhi doirasida faol qo'llansa, ayrimlari vaqt o'tishi bilan umumistemo'l leksikasiga aylanishi mumkin. Masalan, dastlab internet muhitiga xos bo'lgan blogger, podkast, chat, kanal kabi birliklar bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, ilmiy maqolalar va rasmiy axborot matnlarida ham uchramoqda. Bu holat ayrim leksik innovatsiyalarning tor kommunikativ muhitdan chiqib, umumxalq tiliga integratsiyalashayotganini ko'rsatadi. Internet tili alohida kommunikativ uslubni shakllantiradi va unda yangi leksik birliklar kommunikativ iqtisodiylik hamda tezkor axborot almashinuvi ehtiyojidan kelib chiqadi.

Biroq ayrim birliklarning me'yordan tashqari va o'rinsiz qo'llanishi adabiy til me'yorlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. O'zbekcha muqobili mavjud bo'lgan hollarda xorijiy leksemlarning ortiqcha ishlatilishi nutqning milliy xususiyatlarini susaytirishi ehtimoldan xoli emas. Shu sababli leksik innovatsiyalarni baholashda ularning kelib chiqishidan ko'ra, kommunikativ zarurati, funksional yuklamasi hamda o'zbek tili tizimiga moslashish darajasini mezon sifatida olish maqsadga muvofiq. Bu jihat til taraqqiyotini tabiiy jarayon sifatida baholash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. O'zbek raqamli diskursidagi leksik innovatsiyalar til tizimining yangilanish jarayonini aks ettiruvchi muhim pragmatik vositalardan biri. Ular

muloqotning tezkorligi, ixchamligi va ta'sirchanligini ta'minlash bilan birga, zamonaviy raqamli madaniyatning lingvistik ifodasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Leksik innovatsiyalar faqat yangi nominativ birliklar emas, balki muloqotning pragmatik ehtiyojlarini qondiruvchi funksional vositalar sifatida shakllanmoqda. Ularning qo'llanishi internet platformalariga xos kommunikativ vaziyat, foydalanuvchilarning umumiy raqamli tajribasi hamda axborotni ixcham va ta'sirchan yetkazishga bo'lgan ehtiyoj bilan bevosita bog'liq.

Maqolada tahlil qilingan materiallar leksik innovatsiyalarning kommunikativ iqtisodiylikni ta'minlash, baholash munosabatini ifodalash, foydalanuvchilarning ijtimoiy identifikatsiyasini namoyon etish hamda platformaga

xos pragmatik ma'nolarni yuzaga chiqarishda faol ishtirok etishini ko'rsatdi. Shu jihatdan post, story, reels, layk, kontent kabi birliklar oddiy o'zlashmalar sifatida emas, balki o'zbek raqamli diskursining pragmatik tizimida faol ishtirok etayotgan kommunikativ vositalar sifatida baholanishi lozim.

O'zbek tilida raqamli kommunikatsiya jarayonida yuzaga kelayotgan leksik o'zgarishlarni pragmatolingvistik nuqtayi nazardan tizimli o'rganish zarur. Kelgusida ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar materiallari asosida leksik innovatsiyalarning semantik taraqqiyoti, funksional differensiallashuvi hamda lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni yanada boyitishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Tajimbetova G. Tilning rivojlanish tarixi va uning zamonaviy raqamli asrdagi holati. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika – Зарубежная лингвистика и лингводидактика – Foreign Linguistics and Linguodidactics Issue – 3 № 11 (2025). –B. 50-55.
2. Karimov M. Ingliz va o'zbek tillarida raqamli diskurs va pragmatik strategiyalarning nazariy-metodologik asoslari. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika – Зарубежная лингвистика и лингводидактика – Foreign Linguistics and Linguodidactics Special Issue – 1 (2026). –B. 112-116.
3. Масликова О.С. Языковые особенности общения в интернет- пространстве. Инновационная наука №9 / 2019. –С. 69-72.
4. Ibotova M. Diskurs tushunchasi va unga lingvistik yondashuvlar. Scientific Progress Volume 4, Issue 4, 2023. –P. 217-220.
5. Ismoilova R. Internetda naiv lingvistika va ta'lim diskursida kommunikativ normalarning transformatsiyasi. The Lingua Spectrum Journal, VOLUME 11, NOVEMBER 2025. –B. 205-209.
6. Jaborova M. Virtual and multimodal discourses in the Uzbek language: ananalysis of cultural codes. International journal of artificial intelligence. American Academic publishers, volume 05, issue 12, 2025. –P. 2088-2091.
7. Клушина Н.И. Медиастилистика и эмотивная лингвистика. Известия ВГПУ. филологические наук 2019. –С. 158-161.
8. Abdullazoda M. Sociolinguistic Features of Politeness in Uzbek Social Media Discourse. American Journal of Philological Sciences. Vol.05,issue 05 2025. –P. 21-23.
9. Abdurahmanova M. SUN'IY INTELLEKT TIZIMIDA OMONIMLARNI TUSHUNISH VA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI //COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS. – 2024. – Т. 1. – №. 1.